

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкознания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни»	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralingvistik vositalar talqini	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahlili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание	722
A.I. Saminov	
Oksyumoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida	732
N.A.Quldashev	
Raqamli asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



UO'K: 811.512.133:82-1

OKSYUMORON KOMPONENTLARINING MAZMUNYI MUNOSABATI

СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ КОМПОНЕНТОВ ОКСИМОРОНА

CONTENT INTERRELATIONSHIP OF OXYMORON COMPONENTS

Saminov Abdumalik Inomjonovich 

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya

Tilimizdagi oppozativ xususiyatga ega sintaktik-stilistik figuraning qismlari o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar, shuningdek ularning o'zaro mantiqiy bog'lanishi hamda matndagi vazifasi ya'ni qahramonlarning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holati va unda sodir bo'ladigan ziddiyatli vaziyatlarni ifoda etishdagi xususiyatlari o'rganildi.

Аннотация

Смысловая связь между частями оппозиционной синтаксически-стилистической фигуры в нашем языке, а также их логическая связь и их функция в тексте, то есть чувства, внутренние переживания, душевное состояние героев и возникающие конфликтные ситуации. в нем изучались особенности экспрессии.

Abstract

The semantic connection between the parts of the oppositional syntactic-stylistic figure in our language, as well as their logical connection and their function in the text, that is, feelings, internal experiences, the mental state of the characters and the conflict situations that arise. The features of expression were studied in it.

Kalit so'zlar: sintaktik-stilistik figura, oksyumoron, qarama-qarshilik, komponent, mantiq, mantiqsizlik, g'ayriodatiy birikma.

Ключевые слова: синтаксически-стилистическая фигура, оксюморон, контраст, компонент, логика, алогичность, необычное сочетание.

Key words: syntactic-stylistic figure, oxymoron, contrast, component, logic, illogicality, unusual combination.

KIRISH

Tilimizda badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirib, emotsionallik hosil etadigan, o'ziga xos intonasion yaxlitlik ifodalovchi shunday vositalar borki, ular uslubshunoslikda poetik vositalar – figuralar atamasi ostida o'rganilib kelinadi. Bu vositalar nutqni ta'sirli va jozibali qilish bilan birga, fikrni tinglovchiga tez, qulay va oson yetkazish imkoniyatini beradi. Shuningdek, badiiy matnlarning shakllanishda ham muhim funktsiya bajaradi. Badiiy matnlarda ifodali nutq vositasi sifatida muhim rol o'ynaydigan, mazmunan stabillashgan nutq oborotlari sintaktik-stilistik figuralar deyiladi[3]. Badiiy matnlarda til o'zining maksimal darajadagi hissiy-ta'siriy ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi. Bunda tilning uslubiy vositalari muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oksyumoron ikki bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni, ma'nolari ziddiyatli munosabatida bo'lgan komponentlarni birlashtirish orqali favqulodda yangicha o'ziga xos mazmuniy modallikni ifodalovchi sintaktik-stilistik figura ekanligi unga kuchli obrazlilik baxsh etadi. Shuningdek, M.Abdupattoyev ta'kidlaganidek: "Bunday bog'lanish faqat kontekst (matn) ichida voqealanadi. Noodatiy bog'lanishli birikmalar izohtalab bo'lgani uchun ham, ularning izohi fikriy-mazmuniy jihatdan bir nechta ketma-ket qo'llaniladigan gaplar orqali o'quvchiga yetkaziladi. Bir nechta gaplar oksyumoron ifoda etgan mazmuniy yadro atrofiga birlashadi. Natijada hissiy-ta'siriylik yuqori bo'lgan poetik nutq shakllanadi"[1].

Sintaktik-stilistik figura sifatida oksyumoron qarama-qarshi va zid tushunchalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan hodisani anglatar ekan. Bu tushunchalarning mohiyati va vazifasini anglash oksyumoronni estetik jihatdan o'ziga xos hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Qarama-qarshilik va zidlik mantiq va falsafaning kategoriyalari hisoblanadi. Tabiiyki, ularning har bir ko'rinishi ko'plab parametrlarga mos kelsa-da, shunga qaramay, tahlil qilishda o'ziga xos tamoyillaridan foydalaniladi, lekin ularni to'liq aniqlash juda qiyin[4].

Oksyumoron mohiyatan qarama-qarshilik, zidlik, o'xshatish kabi semantik munosabatlarni ifodalovchi vosita bo'lib, uning tarkibidagi qismlar leksik ma'no-mundarijasiga mos kelmaydigan tushunchalarni, ya'ni o'zining asl lug'aviy ma'nosini to'liq inkor qilmaydi. Ushbu mos kelmaydigan semalar hosila semantikasining shakllanishida, birlashishida ham xuddi shu tushunchalar doim saqlanib turadi. Sh.Balli bunda inson tafakkurining asosiy xususiyati – inson ongining tabiiy shartlilikini kuzatgan. U so'zlovchining ongida *iliq-sovuq* yoki, umuman, "juft" so'z bo'lgan *o'ng-chap* mantiqiy antonimining osonlikcha paydo bo'lishini ko'rsatdi. "Bu aql-idrokning butun borlig'ini belgilovchi (yoki cheklovchi) nisbiylikning ko'rinishlaridan biridir. Shunday qilib, bizning ongimizga mavhum tushunchalar juft-juft bo'lib singdiriladi va so'zlarning har biri u yoki bu tarzda boshqasi haqida tasavvurni uyg'otadi"[2].

NATIJA VA MUHOKAMA

Oksyumoron qoidasiga ko'ra, qarama-qarshi qismlar bir-biridan farq qiladi, chunki bir qismidagi ijobiy qarama-qarshilik bilan bog'liq o'zaro ta'sir qiluvchi tushunchalar, ma'lum darajada o'z ma'nosining saqlanishiga ega bo'ladi. Shuningdek, o'zaro inkorga asoslangan ziddiyatlikni, bir-biriga mantiqan mos kelmaydigan tushunchalarni bog'lash orqali o'zgacha ma'no hosil qiladi. Bu xususiyat oksyumoron usulini o'rgangan har bir tadqiqotchining qarashlarida o'z aksini topgan. Shunday qilib, bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar aniq qarama-qarshi munosabatlarga kiradigan holatlardir.

Oksyumoronning g'ayriodatiyligi uni tashkil etgan komponentlar mazmunan birinchi qism ikkinchi qismni aslida semantik bog'lanishda qabul qilmasligi, ya'ni bir vaqtda, bir hodisa tarkibida sodir bo'lishi mumkin emas. Biz quyida oksyumoron hodisasi asosida shakllangan bir nechta qarama-qarshilik, oppozitsiya ifodalovchi lisoniy dalillarni ko'rib chiqamiz. Masalan:

Qayg'u + xursandchilik oppozitsiyasi:

Bu shunday hayotdir, bu shunday dunyo,

Ega chiqavermas har kim ahdiga.

Onasan, omon bo'l, sog' bo'l doimo,

Ma'sum bolalarning **ma'yus baxtiga...** (R.Parfi)

Ushbu matn tarkibidagi *ma'yus baxt* birikmasida ham o'ziga xoslik mavjud. Avvalo, bu so'z birikmasi tashkil etgan qismlarning bog'lanishi, albatta, tilning grammatik qoidalariga mos ravishda bitishuv aloqasi orqali birikkan. Lekin bu o'rinda sintagmatik munosabatga putur yetgan, chunki bog'lanayotgan har qanday ikki qismning ham grammatik, ham semantik bog'liqligidan odatiy birikma hosil bo'ladi. Bu yerda esa *ma'yus* va *baxt* leksemalari anglatgan semalar inson ruhiyatida bir vaqtda sodir bo'lishi mumkin emas. *Ma'yus* – bu inson ruhiyatini tushkun holatini tasvirlash uchun ishlatiladigan sifat (*ma'yus chehra*, *ma'yus inson*), *baxt* esa inson o'zi o'ylaganidek hayot kechirishi, orzulariga erishishi va boshqa shu kabi xursand bo'ladigan holatlarni ifodalovchi leksemdir (*Vatan tuprog'ida yashash baxti qanchalar rohat*, *baxting kulsin*). Shuningdek, ushbu matnda ham *ma'yus baxtiga* birikmasi mantiqsizdek ko'rinsa-da, to'liq matnning mazmun-mohiyati, estetik-falsafiy maqsadi aynan shu birikmada mujassamlashtirilgan.

Yoki:

Anvar *hazin jilmaydi*.

Men ketmayman. (Tohir Malik)

Bu yerda ham *hazin jilmaymoq* birikmasiga e'tibor qaratamiz, chunki *hazin* leksemasi *qayg'uli*, *g'amgin*, *munqli* semalarini o'zida birlashtirib, tushkun holatlarni ifodalaydi, *jilmaymoq* leksemasi esa unga qarama-qarshi ma'nodagi *xursandchilik*, *hayotdan rozilik* belgilarini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. *Hazin jilmaydi* birikmasi yordamida qahramon ruhiy holati ko'rsatib berilgan.

Sukut+shovqin oppozitsiyasi:

Yulduzlar baqrayar...

Yog'du bodida

sollanib chayqalar qamar – belanchak.

O'x, qanday haqorat,

o'x, shabi zolim,

TILSHUNOSLIK

ovojsiz chinqirib kelar kelajak. (Shavkat Rahmon)

Bu matn tarkibidagi **ovojsiz chinqirmoq** birikmasida ham o'ziga xoslik mavjud. Chunki bu so'z birikmasida ham qismlarning bog'lanishi, albatta, tilning grammatik qoidalariga mos ravishda, bitishuv aloqasi orqali birikkan. Ammo unda ham sintagmatik munosabat buzilgan, chunki bog'lanayotgan **ovojsiz** leksemasi ma'nosiga ko'ra *jimlik, sokinlik, sukunat, tovush va ovoz yo'q* joy va holatlarni bildiradi (**ovojsiz** *makon, ovojsiz kino*), **chinqirmoq** leksemasi esa ularning aksi bo'lib, *baland shovqin, baland tovush, baqiriq* holatlarini ifodalaydi (*uning chinqirishi quloqni qomatga keltirib, yurakni yezib yubordi*).

Issiq+sovuq (harorat) oppozitsiyasi:

Kelajakka yog'dirar savol,

Go'yo tunda imkon axtarib,

Chorlar misda muzlagan olov. (R.Parfi)

Yuqoridagi matnda **muzlagan olov** birikmasida ikki "qutb"ni anglatuvchi leksemalar bog'lanishidan hosil bo'lgan oksyumoron yuzaga chiqqan, ya'ni issiqlik haroratini nol darajadan pastlaganida hosil bo'ladigan predmetni ifodalovchi **muz** leksemasi (*shift qirg'og'idan tushgan muz parchasini tutgan qo'llari sovuqda qizargandi*), harorati doimo nol gradusdan yuqori bo'lgan fizik hodisani ifodalovchi **olov** leksemalari (*olov taftidan uning yuzi qizardi*), umuman olganda, me'yorning ikki qutbida turadi. **Muzlagan olov** birikmasi orqali ana shu qutblar semantik jihatdan birikib, yangi mazmun kashf etgan.

Yaxshi+yomon (belgi-xususiyat) oppozitsiyasi:

Biroq o'jar kunduz

tovlanar ekan,

yashil zamzamali yiroq tog'lardan

irmoqlar – jodugar pari qizlarni

boshlab kelar toshloq qirg'oqlarimga. (Shavkat Rahmon)

Ushbu matndagi **jodugar pari** birikmasida ham ikki bir-biriga qarama-qarshi ma'no anglatuvchi leksemalar bog'lanishidan oksyumoron yuzaga chiqqan, ya'ni inson ongida doimo **yomon**, **yaramas** semasini bildiruvchi **jodugar** leksemasi (*Yaramas jodugar kampir qizni olib qochdi*) va uning aksi, **yaxshi**, ijobiy ma'nosini bildiruvchi **pari** leksemalari (*bu qiz go'zal pari ekan*), umuman olganda, bir chiziqlarning ikki tomonida turadi. **Jodugar pari** birikmasi orqali ana shu qutblar mazmunan birikib, yangi sintaktik-stilistik mundarija hosil qilgan.

Halol+harom oppozitsiyasi:

Biz – o'g'rilmiz, halol odamlarmiz, sen buni yaxshi bilasan. (T.Malik)

Hukumat bilan bizdagi qanjiqlar til biriktirgan paytda, halol o'g'rilarning o'lim topishi osonroq bo'ladi. (T.Malik)

Asardan olingan ushbu matnda **halol o'g'ri** birikmasi orqali ko'rinib turganidek, bir-biriga qarama-qarshi tushuncha: to'g'ri yo'ldan rizqini topuvchi insonlarga xos belgi, halollik va egri yo'ldan yurib, harom rizqqa ega bo'luvchi insonlarning belgisini anglatadigan leksemalar birikuvidan oksyumoron hodisasi yuzaga chiqqan, ya'ni bu oksyumorondagi leksemalarga e'tibor qaratsak, agar inson halol bo'lsa, u o'g'ri bo'lmaydi, agar inson o'g'ri bo'lsa, u halol bo'lmaydi degan xulosa kelib chiqadi. Ushbu jihatdan **halol o'g'ri** birikmasi o'zaro zidlangan holda, oksyumoron hodisasini yuzaga keltirgan.

Vaqt oppozitsiyasi:

Mangu yonar lahzalik otash,

Qotib qolgan xayol bepoyon.

Asriy hasrat, yurakdagi tosh,

Bir lahzalik shodlik namoyon. (R.Parfi)

Yuqoridagi she'riy parchada **mangu yonar lahzalik otash** birikmasida vaqtga xos bo'lgan zidlanish mavjud. Oksyumoron qismlarini tashkil qilayotgan leksemalarning biri **mangu** juda uzoq vaqt, doimilik semasini bildirsa, ikkinchisi, **lahza** eng qisqa vaqt, ma'lum soniya semalarini anglatadi. Shu xususiyatiga ko'ra, ularda antonimlik yuzaga chiqqan, **lahzalik otash**, taxminan, bir soniyali otash qanday qilib **mangu yonishi** mumkin. Ijodkor aynan shu "mantiqsizlikdan" o'ziga xos ma'no yarata olgan, oksyumoronning o'zgachaligi ham ana shundadir.

Oq+qora (rang) oppozitsiyasi:

*Yop-yorug' olamga cho'kar qora tun,
Cho'kar yuragimga qop-qora tuman.
Bo'm-bo'sh qo'llarimga ma'yus boqaman,
Ko'zlarim yig'laydi, yig'laydi beun.* (Tursun Ali)

Ushbu matnda *qop-qora tuman* oksyumoroni qatnashgan bo'lib, uning tarkibini tashkil qilgan *qop-qora* va *tuman* leksemalari rang belgisiga ko'ra, bir-biriga qarama-qarshi. Chunki *tuman* tabiatan hech qachon *qora* bo'lmaydi, u oq rangda bo'ladi. Shu munosabat bilan *oq* va *qora* tushunchalari bir paytda ketma-ket qo'llanib, birikma hosil qilishi, umuman olganda, me'yoriy mantiqni buzgandek, ammo *qop-qora tuman* zidligini ataylab, maqsadli biriktirilgan hamda oksyumoron hodisasi reallashtirilgan.

Shirin+achchiq (ta'm) oppozitsiyasi:

*...Xushomadga uchmang!
Undagi har tuk
Yovuzlik o'qidir. Bizlarni har dam
Na shuhrat o'ldirdi, na bo'hton, na o'q –
Biz o'ldik shirin so'z – shirin zahardan.* (Rasul Hamzatov)

Bu matnda *shirin zahar* oksyumoroni qatnashgan bo'lib, uning tarkibini tashkil qilgan *shirin* va *zahar* leksemalari maza-ta'm belgisiga ko'ra, bir-biriga ziddir. Chunki *zahar* tabiatan hech qachon *shirin* bo'lmaydi, u doimo achchiq, deb anglanadi. Shu munosabat bilan *shirin* va *zahar* (achchiq) tushunchalari bir paytda yonma-yon qo'llanib, birikma hosil qilishi, umuman olganda, me'yoriy mantiq buzilgandek, biroq *shirin zahar* zidligi ataylab hosil qilingandek, maqsadli biriktirilgan va oksyumoron usuli shakllantirilgan.

O'lim+hayot oppozitsiyasi:

*Fig'on otiladi jonsiz bag'rimdan,
(Go'yo fig'on bordek murda dilida.)
Shu payt ikki kishi o'tdi naridan,
Quvnoq suhbat qurib avar tilida.* (Rasul Hamzatov)

Yuqoridagi matnda *fig'on otiladi jonsiz bag'rimdan* sintaktik qurilmasida birikmali oksyumoron qatnashgan. Bu yerda *fig'on otilishi* tiriklik, hayot alomati bor jonzoatlarga xos bo'lgan xususiyat, uning *jonsiz bag'rdan* otilishi esa mantiqan aqlga sig'maydigan hodisa. Jonsiz bag'rdan, o'lgan, vafot etgan insonlardan, mantiqan hech qanday tovush chiqishi mumkin emas. Oksyumoronda tiriklarga xos belgi – *fig'on otilishi* va *jonsiz bag'r* tushunchalari oppozitsiyasini ko'rishimiz mumkin.

Aqllilik + ahmoqlik oppozitsiyasi:

*Hov aqlli ahmoq gapni chuvalashtirma! – dedi Tarzan, jerkib.
Gapni chuvalashtirayotganim yo'q. Sen bilan menga o'xshagan aqlli ahmoqlarga kunlari qolgan bo'lsa, Bek akamning do'ppilari tor kelganga o'xshaydi.* (T.Malik)

Matnda *aqlli ahmoqlar* birikmasida ikki "qutb"ni anglatuvchi leksemalar bog'lanishidan oksyumoron yuzaga chiqqan, ya'ni inson aqlan yetuk sifatida *aqlli*, aqlan noqis sifatida *ahmoq* leksemalari orqali ifodalangan. Aqlli inson hech qachon ahmoq bo'lmaydi yoki ahmoq inson hech qachon aqlli bo'lib qolmaydi. Bu yerda kinoyaviy(ironik) mazmunni ifodalash uchun ana shu qarama-qarshi tushunchalardan unumli foydalanilgan. Til qoidalaridan chekingan holda, me'yorning ikki qutbida turuvchi *aqlli* va *ahmoq* leksemalarini biriktirish orqali ana shu qutblar semantik-grammatik jihatdan birikib, yangi mazmun hosil qilingan.

Bunday oppozitsiyalar qatorini juda ko'plab keltirish mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, oksyumoron qismlari o'rtasida turli xil bir-biriga qarama-qarshi, zidlangan, mantiqan biri-ikkinchisiga mos kelmaydigan komponentlardan tashkil topadi, ammo shunga qaramay, birikmaning har bir komponenti o'zining mustaqil ma'nosini qisman saqlab qoladi. Bu juda nozik hodisa bo'lib, agar ijodkor oksyumoronni qo'llash o'rni yoki "me'yoridan" salgina adashsa, bu matn mazmunining buzilishiga olib keladi. Ammo ana shu "me'yor"ga amal qilib, oksyumoron hodisasini qo'llasa, asosi mantiqsizdek ko'ringan o'ta jozibali, mantiqiy va emotsional, estetik-falsafiy ma'noga asoslangan stilistik vositalardan tashkil topgan nutq yuzaga keladi. Oksyumoron usuli yordamida shakllangan birikmalarda til birligi bo'lgan

TILSHUNOSLIK

leksemalarning mazmuniy ketma-ketligi, mosligidan ham ko'ra, hosil bo'lgan nutq ko'rinishidagi umumiy modal ma'no, unda ifodalanilayotgan estetik xususiyat muhimdir. Oksyumoron hodisasini to'liq anglab yetish uchun uni, albatta, kontekst tarkibida o'rganish zarur. Chunki oksyumoron tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro kontekst talabi asosida bog'lanadi. Agar u kontekstdan tashqarida o'zining asosiy xususiyatini yo'qotadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил.фан.док. диссертацияси, – Фарғона, 2021 – Б. 127.
2. Балли Ш. Французская стилистика. пер. с фр. – Москва, Иностр. лит., 1955. – С. 240.
3. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. – Фарғона, 2016. – Б. 22-34
4. Шестакова Э.Г. Оксюморон как категория поэтики (на материале русской поэзии XIX – первой трети XX веков). – Донецк, НОРД-ПРЕСС, 2009. – 209 с.
5. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, 1977 // <http://unicat.natlib.uz/Details>.
6. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, Akademnashr, 2010. 400 Б. – С. 148.
7. Садинова Н. Оксюморон ва унга прагматик ёндашув // Ўзбек тили ва адабиёти. 2018 й. 5 сон 106 б.
8. Салаев Ф., Қурбонийёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2010. 331 Б. – С. 267.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли 1-жилд. – Тошкент, ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 87.
10. Хатамов Н., Саримсақов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, Ўқитувчи, 1979. 361 Б.
11. Qurbonova M., Yo'ldashev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent, Universitet, – 2014. – Б. 78-79.
12. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Хамидов Н.Н." matbaa korxonasi, 2008. – Б. 82-83.